
11 февраль - Илм-фан соҳасидаги аёллар ва қизлар халқаро куни муносабати билан маънавий-маърифий тадбир ўтказилди

"Shodiyona" mahalla fuqarolar yig'inida 11 fevral - Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni munosabati bilan Farg'ona shahar "Oqila ayollar" harakati a'zolari ishtirokida "Kitobxon ayollar" nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Unda viloyat hokimi maslahatchisi Sohibjamol Tangotarova, viloyat va shahar "Oqila ayollar" harakati yetakchisi Yulduzxon Rahimova, Shahodatxon Axunovalar, viloyat targ'ibot guruhi rahbari Sayyoraxon Alimova, shahar hokimi o'rinnbosari Dilshodaxon Xolmatova hamda mahalladagi faol xotin-qizlar, kitobsevarlar ishtirok etishdi.

Xotin-qizlarning ilm, ma'naviyat va ma'rifatga yetaklovchi fazilatga ega ekanliklari ularning turmush tarzi, xulqi va ichki dunyosiga ziynat berishi bilan ahamiyatlidir. Darhaqiqat, bugungi kun ayoli, bugungi zamon onasining ma'naviy dunyosini boyituvchi nur kitobxonlikdir. Kitobxonlik nafaqat milliy qadriyatimiz, balki milliy tarbiyaning ham asosidir.

Tadbir davomida so'zga chiqqanlar xotin-qizlar o'rtasida kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqishni oshirish, kitobxonlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan tavsiya berildi.

Shuningdek, tadbir davomida "XXI asr ayoli" respublika ko'rik tanlovi g'olib Shaxnozaxon Raimjonova hayot va ijod yo'lli haqida ham yig'ilganlar ma'lumotlar olishdi. Ijodkor Rahmon Mirzo va viloyat hokimlini vakillari tomonidan mahallaga kitoblar jamlanmasi topshirildi. Mahalla kutubxonasidan xotin-qizlarning foydalanishi namunali baholandi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati
2023-02-13 16:30:40